



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-aprel

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,8 foizni tashkil etdi. Avtotransport vositalari savdosi, iste'mol tovarlari, va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,8 foizga ko'payishiga olib keldi.

### 2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (28,9 foiz), Beruniy (9,8 foiz), Turtkul (9,2 foiz), Xujayli (9,2 foiz) va Amudaryo (7,0 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 5,0 foizga oshib, 0,7 mln. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-aprel oylarida 0,5 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qorauzak tumani (1,1 mln. so'm), Xujayli tumani (9,8 mln. so'm) va Taxtakupir tumanida (9,5 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 28,4 trln. so'mni tashkil etdi va 0,2 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,2 foizni tashkil etdi.

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>		
Respublikasi	687,8	125,0
Amudaryo	469,7	131,9
Beruniy	687,8	124,3
Qonlikul	494,7	123,0
Qorauzak	1055,2	128,3
Kegeyli	408,2	117,5
Qungirotd	582,5	126,4
Muynoq	313,0	134,3
Nukus tumani	457,9	114,3
Taxiatosh	497,6	127,7
Taxtakupir	947,6	131,0
Turtkul	574,4	129,7
Xujayli	982,7	132,2
Chimboy	522,5	139,9
Shumanay	578,8	124,3
Ellikqala	490,4	129,7
<b>shahar:</b>		
Nukus shahri	1190,3	128,9

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 85,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 75,3 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,9 foizni tashkil etdi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi**  
**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: R.Sharibaev**

**(0371) 230-82-06**